PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA AMALIY SAN'ATNING ASOSINI TASHKIL ETUVCHI NAQQOSHLIK FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Aslonova Navro'za Hoshim qizi
San'at va sport fakulteti
"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" ta'lim yo'nalishi o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23274260

Annotatsiya. Ushbu tezisda oliy ta'lim muassasalarida naqqoshlik va amaliy san'at fanlarini o'qitish jarayonini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Naqqoshlik mashg'ulotlarida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, talabalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda milliy naqsh san'atining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatish metodikasiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlarni bosqichma-bosqich tashkil etish va zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanishning imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.
Kalit so'zlar: amaliy san'at, naqqoshlik, milliy naqsh, metodika, talaba, amaliy mashg'ulot, kompozitsiya, ijodiy faoliyat.

Naqqoshlik o'zbek xalqining ko'p asrlik badiiy merosini o'zida mujassam etgan amaliy san'at turlaridan biridir. Naqshlarda o'simliksimon, geometrik va ramziy bezak elementlarining o'zaro uyg'unligi, ranglarning mutanosibligi hamda kompozitsion yaxlitlik muhim ahamiyatga ega. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida naqqoshlik fanini o'qitish jarayonida talabalarga faqat tayyor naqshlarni takrorlashni emas, balki naqshning tuzilishi, kompozitsiyasi va badiiy ifoda imkoniyatlarini tushuntirish zarur.

Naqqoshlik fanini samarali o'qitishda mashg'ulotlarni izchil bosqichlarda tashkil etish maqsadga muvofiq. Dastlab talabalarga naqsh san'atining tarixi, asosiy naqsh turlari va ularning tuzilishi haqida nazariy ma'lumot beriladi. Keyingi bosqichda naqsh elementlarini chizish, ularni takrorlash va ritmik joylashtirish bo'yicha amaliy mashqlar bajariladi. Shundan so'ng talabalar mustaqil ravishda oddiy kompozitsiyalar yaratishga yo'naltiriladi.

Girix[1] – murakkab naksh turiga kiradi. Xandasiy naqsh — turtburchak, uchburchak va boshka elementlardan tashkil topgan geometrik murakkab naqsh turi. Geometrik naqsh muayyan taksimlarga ega buladi. Xar bir taqsim o'z tuzulishiga ega bo'ladi. Girix O'rta Osiyoda va yaqin sharqda keng tarqalgan naqsh bo'lib, XII-XYI asrlarda ayniqsa O'rta Osiyoda juda keng tarqalgan va taraqqiy etgan. Yana Pokistonda, Turkiya, Ispaniya, Yaponiya kabi mamlakatlarda ham keng taraqqiy etgan. Dunyoda girixni eng ko'p tarqalgan joyi O'rta Osiyodir. Girix kompozitsiyalarini arxitektura minoralaridan tortib, kitob muqovalarigacha bezatilganligini guvoxi bo'lamiz. Usha davr uchun girixni chizmachilik asboblari, matematika formalari asosida ishlanishi katta ilmiy kashfiyot edi.

[1] Girix – forscha chigal, tugun degan ma'noni anglatadi

Gulli girix o‘simlik va geometrik naqsh elementlaridan tashkil topadi. Uning elementlariga yukorida sanab o‘tilgan geometrik va o‘simliksimon naqshlar kiradi. Girix, to‘g‘ri, egri va aralash chiziqlarga bo‘ysundirilgan bo‘lib, o‘ziga xos shartlilikka ega. Bu naqsh turining keng tarqalishi bezak san’atining rivojlanishiga yangidan-yangi imkoniyatlar ochib berdi. O‘zbek madaniyatining rivojlanishiga butun dunyoga mashhur olimlar — Abu Ali ibn Sino (Avitsenna), Beruniy, Firdavsiy va Rudakilar yetishib chikdilar. O‘sha vaqtda butun dunyoga mashhur bo‘lgan (YuNYeSKO muhofazasidagi) Somoniy maqbarasi qurildi, U 1127 yili me’mor Arslon Muhammadxon boshchiligida pishirilgan oddiy g‘ishtni har xil kombinatsiyalashtirib qurilgan. g‘ishtlar yoz faslida eng toza ganch bilan terilib ishlangan. Xalq rivoyatlariga ko‘ra, me’mor bu minorani qurgan-u, ko‘zdan g‘oyib bo‘lgan. Imorat yaxshi cho‘kib, o‘rnashib terilgan yaxlit toshga aylangandan keyin me’mor paydo bo‘lib pardoz ishlarini boshlagan.

O‘zbekistonning an’nanaviy me’morchiligida naqqoshlik asosan shiftlarni, jimjimador araqilarni, saroy ustunlarini, masjidlar, maktablar, boylarning uylari, yog‘ochdan yasalgan buyumlarni bezashda qo‘llangan. Nozik o‘simliksimon-geometrik naqshdagi o‘zaro singib ketgan novdalar, shoxlar va hashamatli tasvirlangan gullarning ritmik harakati, o‘zbek ustalarining ishlaridagi islimi va girix naqshlarining klassik motivlari shiftlarning moslangan. Naqsh[2] ko‘proq intererlarni va yopiq ayvon, peshayvonlarni bezashga xizmat qiladi. O‘qituvchi tomonidan ko‘rgazmali materiallardan foydalanish ham muhim metodik vosita hisoblanadi. Naqsh namunalarini tahlil qilish, ularning markaziy va yordamchi elementlarini aniqlash, rang yechimini kuzatish orqali talabalarda badiiy tahlil qilish ko‘nikmasi shakllanadi.

Naqqoshlik mashg‘ulotlarida muammoli ta’lim, amaliy topshiriqlar, ijodiy loyihalar va mustaqil ishlarni uyg‘unlashtirish talabaning faol ishtirokini ta’minlaydi. Ayniqsa, bir xil naqsh elementidan turli kompozitsiyalar yaratish topshirig‘i talabaning mustaqil fikrlashi va ijodiy izlanishini rivojlantiradi.

Xulosa. Oliy ta’lim muassasalarida naqqoshlik fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishda nazariy bilim, amaliy mashg‘ulot va mustaqil ijodiy faoliyatning o‘zaro uyg‘unligi muhimdir. Bosqichma-bosqich ta’lim, ko‘rgazmalilik va ijodiy topshiriqlardan foydalanish talabalarning naqqoshlik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Bulatov S.S. Naqqoshlik. -T.: Fan va texnologiya, 2010
2. Bulatov S. S. O‘zbek xalq alamiy bezak san’ati, - T.: “Mehnat”, 1991.
3. Axmedov M.B. Yogoch o‘ymakorligi. -T.: Adabiyot uchqunlari, 2017
4. Muratov X.X., Jabbarov P.P. Amaliy va badiiy bezak san`ati. -T.: Ijod-print, 2020
5. Qodirxo‘jaev P. Badiiy bezak san`ati. -T: Iqtisod-moliya, 2008
6. Xolmatov B.K. Kompozitsiya - T.: «Iqtisod-moliya», 2007.
7. G’ulomov K. Amaliy san’at-T.: O`qituvchi, 2007.

[2]Naqsh - arabcha tasvir, gul degan ma’noni anglatadi

8. Qosimov Q. Naqqoshlik – T.: O`qituvchi. 1990.
9. Bulatov S.S., Shabaratov P.P., Rasulov M.A.; “Naqqoshlik” kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma.-T.: «Iqtisod-moliya», 2010
10. Azimov I. O`zbekiston naqshu nigorlari. – T.: G’.G’ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1987.